



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

18 ЖИЛД, 2/3 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 18, НОМЕР 2/3

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 18, ISSUE 2/3



ТОШКЕНТ-2025

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№2/3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2025-2/3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farxod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govverjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Boymurodov Botir Panji o'g'li NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA FUQAROLAR ISHTIROKI TASNIFI.....	5
2. Khurramova Adolat Bakhodir kizi EXPERIMENTAL LEGAL REGIMES IN THE DIGITALIZATION OF LAW.....	13
3. Ubaydullayev Abror Qutpilla o'g'li XORIJYIY MAMLAKATLARDA ISLOM MOLIYA HUQUQIGA DOIR QONUNCHILIK EVOLUTSIYASI.....	18
4. Абдуллаев Джамшид Джамилович МЕДИЦИНСКАЯ ПОМОЩЬ И МЕДИЦИНСКИЕ УСЛУГИ: ПРАВОВЫЕ РАЗЛИЧИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ.....	25
5. Алимарданова Ирода Воҳид қизи ТАЪЛИМ ВА ИЛМИЙ МАҚСАДЛАР УЧУН АСАРЛАРДАН ЭРКИН ФОЙДАЛАНИШ.....	32
6. Зокиров Шерзод Илхом ўғли ПРОКУРОР – МУХТАСИБНИНГ ПРОТОТИПИ СИФАТИДА (ФУҚАРОЛАР МУРОЖААТЛАРИ БИЛАН ИШЛАШ МИСОЛИДА).....	39
7. Abzalova Khurshida Mirziyatovna TIME OF COMMITTING A CRIME AND THE RETROACTIVE EFFECT OF THE LAW IN THE CRIMINAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	47
8. Ҳамидов Нурмуҳаммад Ориф ўғли АЙРИМ МАСАБДОРЛИК ЖИНОЯТЛАРИ ОБЪЕКТИНИНГ ЖИНОЯТ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	53
9. Kurbanov Ma'rufjon Mamadaminovich BA'ZI XORIJYIY MAMLAKATLAR JINOYAT QONUNCHILIGIDA RETSIDIV JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	60
10. Shamsidinov Zayniddin Ziyovidinovich CRIMINAL AND LEGAL CHARACTERISTICS OF RECEIVING A BRIBE IN FOREIGN LEGISLATION.....	72
11. Суннатов Воҳид Тошмуродович МАНСАБ СОХТАКОРЛИГИ ЖИНОЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ.....	79
12. Баракайев Лазизжон Отақулович ИҚТИСОДИЙ ЭКСПЕРТИЗАЛАРНИ ТАЙИНЛАШ ВА ЎТКАЗИШ БИЛАН БОҒЛИҚ МУАММОЛАР ТАҲЛИЛИ.....	86




**12.00.02-КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО.
ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО**

Ubaydullayev Abror Qutpilla o‘g‘li,
Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti
E-mail: aubaydullayev227@gmail.com

**XORIJIY MAMLAKATLARDA ISLOM MOLIYA HUQUQIGA DOIR QONUNCHILIK
EVOLUTSIYASI**

For citation: Ubaydullaev Abror Qutpilla o‘g‘li. EVOLUTION OF LEGISLATION ON ISLAMIC FINANCIAL LAW IN FOREIGN COUNTRIES. Journal of Law Research. 2025, 10 vol., issue 2/3, pp. 18-24

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14950648>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola xorijiy mamlakatlarda islom moliya huquqining qonunchilik evolyutsiyasini tahlil qiladi. Unda islom moliyasining zamonaviy qonunchilikka integratsiya qilish modellari, xususan, turli davlatlarning bu boradagi noyob tajribalari, yutuq va kamchiliklari ko‘rib chiqiladi. Maqolada shariat kengashlarining tuzilishi, vakolatlari va faoliyatidagi o‘ziga xosliklar, shuningdek, moliyaviy regulyatorlarning islom moliyasiga nisbatan vakolat doirasi va yondashuvlari atroflicha o‘rganiladi. Ishda islom moliya huquqining bugungi kundagi tendensiyalari, o‘ziga xos jihatlari va istiqbollari aniqlanadi. Maqola islom moliyasi sohasidagi qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Huquq, model, moliya, xalqaro, institut, tizim, kengash, regulyator.

Убайдуллаев Аброр Қутпилла ўғли,
Докторант Ташкентского государственного юридического университета
Электронная почта: aubaydullayev227@gmail.com

**ЭВОЛЮЦИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА ПО ИСЛАМСКОМУ ФИНАНСОВОМУ
ПРАВУ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ**

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена анализу эволюции законодательства в области исламского финансового права в зарубежных странах. В ней рассматриваются модели интеграции исламских финансов в современное законодательство, в частности, уникальный опыт различных государств в этой области, их достижения и недостатки. В статье также подробно изучаются структура, полномочия и особенности деятельности шариатских советов, а также объем полномочий и подходы финансовых регуляторов к исламским финансам. В работе выявляются современные тенденции, особенности и перспективы исламского финансового права. Статья служит основой для разработки научных предложений и рекомендаций по совершенствованию законодательства в сфере исламских финансов.

Ключевые слова: право, модель, финансы, международный, институт, система, совет, регулятор

Ubaydullaev Abror Qutpilla ogli,
 Doctoral student at Tashkent State University of Law
 Email:aubaydullayev227@gmail.com

EVOLUTION OF LEGISLATION ON ISLAMIC FINANCIAL LAW IN FOREIGN COUNTRIES

ANNOTATION

This article analyzes the evolution of legislation in the field of Islamic financial law in foreign countries. It examines models of integrating Islamic finance into modern legislation, in particular, the unique experience of various states in this area, their achievements and shortcomings. The article also examines in detail the structure, powers and features of the activities of Sharia councils, as well as the scope of powers and approaches of financial regulators to Islamic finance. The work identifies current trends, features and prospects of Islamic financial law. The article serves as a basis for developing scientific proposals and recommendations for improving legislation in the field of Islamic finance.

Keywords: law, model, finance, international, institute, system, council, regulator

Islomiy moliya tizimi dunyoda juda tez rivojlanib boryapti. Buning sababi shundaki, milliy va xalqaro miqyosda bu tizimning ishlashi uchun qulay sharoitlar yaratilyapti. Global islomiy bank tizimi, kapital bozori va sug'urta sohasini tartibga soluvchi asosiy muassasalar ham faol ishlayapti. Bu muassasalar islom moliyasining rivojlanishida juda muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, shunchalik tez o'sishiga qaramay, ko'plab davlatlarda islom moliyasi hali ham cheklangan. Ba'zi mamlakatlarda hatto uning huquqiy asoslari ham yo'q. Islom moliyasi milliy va xalqaro moliyaviy tizimlarga yetarlicha kirib bormagani uni yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Bugungi kunda islom moliya sohasining rivojlanishi uchun asosiy mas'uliyat nazorat organlariga yuklatilgan. Ushbu modelga bo'lgan ishonchni mustahkamlash islomiy moliya tizimining kelajagi uchun juda muhimdir.

Islomiy moliyaning xalqaro miqyosda qabul qilinishi mamlakatlardan islomiy muassasalarning yaxshiroq ishlashi uchun qonuniylik va tartibga solish asosini yaratishni talab qildi. Islomiy moliyaviy muassasalar shariat prinsiplariga asoslanadi va an'anaviy qonunlar (umumiy huquq yoki roman-german huquq tizimiga oid) islomiy moliyaviy muassasalarni yetarli tartibga sola olmaydi. Mamlakatdagi islomiy moliyaviy muassasalar shariat qonuniga asoslangan qabul qilingan qoidalar bilan yoki mavjud an'anaviy qonunlarni islomiy moliyaviy muassasalar ehtiyojlariga moslashtirilgan holda boshqarilishi mumkin. Ko'pgina mamlakatlar an'anaviy asoslarga yuklama bermaslikka qodir bo'lgan xalqaro standartlarga muvofiq islomiy moliya uchun tartibga solish asosini qabul qilmoqdalar.

Bugungi kunda olimlar islom moliyasini joriy etishning bir qator modellari mavjudligini e'tirof etadilar. Mashhur sharqshunos, huquqshunos olim Renat Bekkinga ko'ra, dunyoda islom iqtisodiy modelini joriy etishning uch ko'rinishi ya'ni, monistik, dualistik hamda yagona an'anaviy modellari mavjud.

Janubi-sharqiy osiyo mamlakatlarida islom moliyasi taraqqiyotiga oid tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi olim Kepliga ko'ra, islom moliyaviy institutlarini tartibga solish asosini uch model tashkil etadi: bular, to'liq islomiy model, dualistik model va neytral yoki qisman o'zgartirilgan an'anaviy modellardir. [1]

Monistik model - bu islomiy moliyani tartibga solishga qaratilgan yondashuv bo'lib, bunda butun moliya tizimi yoki uning muhim qismi shariat prinsiplariga muvofiq ishlaydi. Bekkinga ko'ra, monistik modelning asosiy belgilari - bu moliya institutlarining o'z operatsiyalarida kredit foizidan foydalanishdan voz kechishidir. Bunda, asosan, albatta, bank sektori katta o'zgarishlarga uchradi, soliq sohasi kam ta'sirlandi, sug'urta esa, qoida tariqasida, hatto ko'rib chiqilmadi ham.[2]

Monistik model - bu islomiy moliyani tartibga solishga yondashuv bo'lib, bunda butun moliya tizimi yoki uning muhim qismi shariat prinsiplariga muvofiq ishlaydi.

Monistik modelning asosiy xususiyatlari:

- Ushbu model doirasida islomiy prinsiplar moliya faoliyatining barcha jabhalariga, jumladan bank ishi, sug'urta, investitsiyalar va boshqa moliyaviy xizmatlarga singdiriladi;

- foiz stavkalari, qoida tariqasida, islomiy moliyada taqiqlangan, shuning uchun monistik model ularni moliya tizimidan to'liq chiqarib tashlashga intiladi. Foiz o'rniga foyda va zararni bo'lish kabi boshqa mexanizmlar, shuningdek, shariatga muvofiq bo'lgan turli xil savdo va investitsiya shakllari qo'llaniladi;

- monistik modelni qo'llagan davlatlar ba'zi hollarda islomiy moliyaviy institutlarni yaratish va qo'llab-quvvatlashda faol rol o'ynashi mumkin;

- monistik model ko'pincha moliyaviy institutlarning faoliyati shariat prinsiplariga muvofiq bo'lishini ta'minlash uchun alohida shariat nazoratini nazarda tutadi.

Bugungi kunda Eron, Pokiston hamda Sudan ushbu modelni to'liq yoki qisman joriy eta olgan mamlakatlar hisoblanadi.

1980-yillardan boshlab Eron va Pokistonda to'liq moliyaviy tizimlar isloh qilindi, ularning ustuvor yo'nalishi esa islomiy diniy-huquqiy doktrinaga asoslangan. Eronda o'sha paytda faoliyat yuritayotgan barcha an'anaviy (islomga mos bo'lmagan) tijorat banklari musodara qilindi. Natijada, faqatgina 6 ta xususiy bank va islomga mos keladigan operatsiyalarni amalga oshiradigan 3 ta bank qolib ishlay boshladi. Shunga qaramay, banklar ishlashi uchun daromad ko'rishi kerak edi. Eronlik regulatorlar buni 1981-yilda bank xizmatlari uchun 4% lik xizmat haqi joriy qilish orqali birmuncha xal qilishdi. 1983-yilda esa loyihasi 1982-yildayoq taklif qilingan "Foizsiz bank faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Qonunga ko'ra:

- foizli depozitlarni foizsiz depozitlarga aylantirish;

- qonun kuchga kirgan vaqtdan boshlab bir yil ichida 1984 yil 21 martdan boshlab, depozitlar «foizli» hisob raqamlarida joylashtirmaslik;

- moliya-kredit muassasalarini 3 yil ichida o'z faoliyatlarini to'liq islomiy normalarga moslashtirish;

- banklar tomonidan foizli kreditlar ajratmaslik belgilab qo'yildi. [3]

Ushbu qonun to'rt bobdan iborat:

- Bank tizimining maqsadlari va majburiyatlari;

- pul resurslarini jalb qilish;

- foizsiz bank operatsiyalari;

- markaziy bank.

1983 yilgi Eronning «Foizsiz bank faoliyati to'g'risidagi» qonunining 8-moddasida banklar bevosita ishlab chiqarish loyihalariga va rivojlanish loyihalariga sarmoya kiritishlari mumkinligi ta'kidlanadi. Hukumat ushbu qonunda investitsiya loyihalaridagi ishtirok riskini kamaytirish maqsadida islom banklarining ushbu investitsiya rejalari Eron davlat budjeti yillik qonun loyahasiga kiritilishi va davlat Majlisi tomonidan tasdiqlanishi kerakligi belgilab qo'yildi. Eron 1985-yildan boshlab moliya-kredit tizimi to'liq islom normalariga muvofiqlashdi deb hisobladi.

Regulyator sifatida Eron Markaziy banki Eronning barcha islomiy bank tizimining monitoring va nazorat funksiyalarini bajaruvchi yagona organ hisoblanadi. Shu bilan birga, xorijiy banklarga erkin savdo zonalarida ishlashga ruxsat berilgan, ammo 2004 yildan boshlab, bu banklarga Eron hududida filial ochish huquqi berildi, shart shuki, kreditlar faqat foyda va zararni bo'lishish prinsipi asosida taqdim etiladi.

Huquqshunos olim Renat Bekkinga ko'ra, bunday modelni tanlagan mamlakatlardagi asosiy muammo, bu tashqi qarzga xizmat ko'rsatish edi. Ya'ni, ular katta miqdorda tashqi qarzga ega edilar hamda jahon iqtisodiy munosabatlarida belgilangan qoidalarga muvofiq harakat qilishga majbur edilar. Shuningdek, olimga ko'ra, monistik iqtisodiy model nafaqat tizimning isloh qilinishi, balki, aholining islom moliyasi talablariga muvofiq turmush tarzini kechirishga tayyor ekanligini ham talab etadi. Bunda, islomiy moliyaviy xizmatlarga talab yetilganmi yoki yo'qmi degan savol tug'ilganda, shuni yodda tutish kerakki, bu talab ko'p jihatdan odamlarning hatto islomiy banklar, boshqa

moliyaviy resurslar bo'lmagan taqdirda ham psixologik jihatdan shariat talablariga rioya qilishga qanchalik tayyor ekanligiga bog'liq. [2]

Keyingi asosiy model – bu dualistik model hisoblanadi. Ikkinchi guruh mamlakatlarida an'anaviy va islomiy moliyaviy institutlar yonma-yon faoliyat yuritadi (Bahrayn, BAA, Malayziya va boshqalar). Islomiy moliyaviy institutlarning faoliyati maxsus qonunlar va qoidalar bilan tartibga solinadi.[5] Davlat islomiy moliyaviy institutlarni faol qo'llab-quvvatlab, ular uchun zarur infratuzilmani yaratishda ishtirok etadi. Shuningdek, an'anaviy moliyaviy kompaniyalarga "islomiy oynalar" ochish va musulmon axloqiy qoidalari hamda belgilangan standartlarga mos keladigan mahsulot va xizmatlarni taklif qilish orqali islomiy moliya tizimiga qo'shilish imkoniyati beriladi.

Dualistik modelni muvaffaqiyatli yo'lga qo'ya olgan mamlakatlardan biri Malayziya hisoblanadi. Malayziyada islom moliyasining, jumladan, islom banking rivojlanishi turli bosqichlardan iborat bo'lgan. Malayziya xorijiy tashkilotlarga mahalliy bozorda banklar tashkil etishga ruxsat beruvchi siyosatni amalga oshirgan (Hasan, 2010). Malayziyada islom moliyaviy institutlarining rivojlanishi "Islom bank ishi to'g'risida" 1983-yilgi qonun (IBA), "Takaful to'g'risida" qonun (1984), "Bank va Moliya institutlari to'g'risida" 1989-yilgi qonun (BAFIA), "Qimmatli qog'ozlar komissiyasi to'g'risida" 1993-yilgi qonun, "Kapital bozori va xizmatlar to'g'risida" 2007-yilgi qonun (CMSA), "Malayziya Markaziy banki to'g'risida" 2009-yilgi qonun va "Islomiy moliyaviy xizmatlar to'g'risida" 2013-yilgi qonun (IFSA) va boshqa qonunchilik hujjatlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va osonlashtiriladi.[6] 1958-yilgi "Malayziya Markaziy banki to'g'risida" qonun asosida 1959-yilda tashkil etilgan Markaziy bank – Bank Negara Malayziya (BNM) va Moliya vazirligi Malayziyada islom moliyasini tartibga soladi va ular islomiy moliyaviy faoliyatni nazorat qilishda ishtirok etadi.[7] 1958-yilgi "Malayziya Markaziy banki to'g'risida"gi qonun 2009-yilgi "Malayziya Markaziy banki to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonun bilan o'zgartirildi.

Malayziyada birinchi islomiy bank 1983-yildagi "Islomiy bank faoliyati to'g'risida"gi qonunga muvofiq o'sha yili tashkil etildi. Qonun sakkiz qismdan iborat bo'lib, quyidagi qismlarni o'zida mujassam etdi:

- Qisqartirilgan nom, kirish qismi, qo'llanish va tushuntirish;
- litsenziyalash bilan bog'liq qoidalar;
- moliyaviy talablar va majburiyatlar;
- egalik, nazorat va boshqaruvga oid masalalar;
- biznesga qo'yilgan cheklolar;
- nazorat va kuzatish vakolatlari;
- kompensatsiya, ustuvorlik nuqtai nazari va jamg'arma omonatlari bo'yicha majburiyatlar, direktorlar va boshqaruvchilar uchun sanksiyalar kabi masalalar;
- islomiy banklarning faoliyat yuritishini ta'minlash uchun boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilishi lozim bo'lgan tegishli tuzatishlar.

"Investitsion boshqaruv to'g'risida"gi qonun Malayziyada banklarning likvidligini qo'llab-quvvatlash uchun davlat investitsiya sertifikatlarini ta'minlashga yo'l ochdi. 1994-yilga kelib Malayziyada allaqachon dualistik bank tizimi mavjud edi.

Yagona an'anaviy model asosida islom moliyasini joriy etish, uning huquqiy asoslarini shakllantirish mavjud qonun hujjatlariga o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritmagan holda, mavjud qonun hujjatlarining egiluvchanligi, shartnomalarning erkinligiga tayangan holda islom moliyaviy munosabatlarini yo'lga qo'yish hisoblanadi. Bunday mamlakatlar qatoriga Turkiya, shuningdek, yevropa mamlakatlaridan Britaniya va Shveytsariyani misol qilib keltirish mumkin.

Jumladan, Turkiyada 1980-yillarda Al Baraka Turk va Faisal Finance House kabi muassasalar tashkil etilishi muhim voqelik bo'ldi. Ushbu muassasalar Maxsus moliyaviy darchalar (Special financial houses) reglamentiga asoslanib faoliyat yuritgan bo'lsa-da, mamlakatning dunyoviy siyosati tufayli ular katta qiyinchiliklarga duch keldilar va o'sishlari cheklangan edi. SFHlar filiallar tarmog'ining cheklanganligi va depozit sug'urtasi tizimiga kiritilmaslik kabi to'siqlarni yengib o'tishlari kerak edi, bu esa ularning rivojlanishini ortga surdi. 2001-yildan so'ng, SFHlarni 4389-sonli Banklar to'g'risidagi qonunga kiritilishi Depozitlar Sug'urta Fondi tashkil etilishiga sabab bo'ldi, bu

esa depozitlarni kafolatlab, ishtirokchi banklar uchun xavfsiz muhit yaratdi. 2005-yilda qabul qilingan 5411-sonli "Banklar faoliyati to'g'risida"gi qonun SFHlarni "Ishtirokchi Banklar" deb qayta nomlashni va ularni an'anaviy banklar bilan bir xil tartibga solish imkonini berdi, bu esa global moliyaviy amaliyotlarga moslashish uchun muhim qadam bo'ldi. Yangi bank faoliyati to'g'risidagi qonunning asosiy farqi, bank xizmatlarini belgilab beruvchi ro'yxatning kiritilganligidadir, bu esa turk bank tizimining konsepsiyasini aniqlaydi. 2010-yilda sukuk chiqarishning joriy etilishi Turkiyaga davlat va xususiy sukuklarni chiqarish imkonini berib, islomiy moliya institutlari uchun likvidlik va moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirdi.

Hozirda, Turkiyaning islomiy moliya sektori o'sishda davom etmoqda, bu esa davom etayotgan huquqiy islohotlar va kuchli tartibga solish tizimi bilan qo'llab-quvvatlanadi. Ushbu sa'y-harakatlar ishtirokchi banklarning barqarorligi va kengayishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, mamlakatning islomiy moliya markazi sifatida rivojlanish maqsadiga erishishga yordam beradi.

Yevropa mamlakatlaridan Buyuk Britaniya islom moliyasini tatbiq etish borasida o'z qit'asida boshqalardan ancha ilgari ketgan desak adashmagan bo'lamiz.

So'nggi 30 yil ichida Buyuk Britaniya hukumati islom moliyasining rivojlanishini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Mamlakat islom moliyasining o'sishi uchun qulay huquqiy va tartibga solish muhitini faol ravishda yaratdi. (Rowley, 2014). Buyuk Britaniyada yagona, birlashgan huquqiy tartibga solish asosi barcha banklarga, an'anaviy yoki islomiy bo'ladimi, birdek tegishli hisoblanadi. Moliya xizmatlari boshqarmasi (Financial Services Authority) barcha moliyaviy xizmatlarning yagona tartibga soluvchisidir.[8]

FSA tashkil etilishidan oldin bir nechta tartibga soluvchi organlar moliyaviy bozorning turli qismlarini nazorat qilgan. Masalan, Angliya banki 1987-yilgi "Bank ishi to'g'risida"gi qonunga muvofiq banklarni nazorat qilgan, Qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar bo'yicha kengash esa 1986-yilgi "Moliyaviy xizmatlar to'g'risida"gi qonunga muvofiq investitsiya bozorini nazorat qilish vazifasini bajargan. 1997-yilda 11 ta turli tartibga soluvchi organ bitta organga birlashtirilib, Moliya xizmatlari boshqarmasi (FSA) tashkil etildi. Ushbu yagona tartibga solish tuzilmasi FSAGA tizimni yaxlit holda ko'rib chiqish, islomiy moliyaviy institutlar va mahsulotlarni baholash imkonini berish orqali islom moliyasi sanoatiga foyda keltirdi. Yagona tartibga soluvchi organning mavjudligi avvalgi tartibga solish rejimining bir qator murakkabliklari va qarama-qarshi fikrlarini hal qilishga katta yordam berdi. 2000-yilda "Moliyaviy xizmatlar va bozorlar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi va bu Buyuk Britaniyada islom banklarini tashkil etishga imkon berdi.[9] Ushbu qadam muhim edi, chunki u ushbu turdagi moliyaviy institutlarga an'anaviy banklar bilan bir xil maqom berdi. Bungacha islom banklari uchun maxsus qonunlar yoki qoidalar mavjud emas edi, ya'ni ular noqulay ahvolda edilar. Yangi qonun "o'yin maydonini" tekislashga yordam berdi va bu banklarga raqobatlashish uchun yaxshiroq imkoniyat yaratib berdi.

Buyuk Britaniyadagi musulmon jamoasi qonunning qabul qilinishini mamnuniyat bilan kutib oldi. Hukumat ham moliyaviy inklyuzivlikni rag'batlantirish uchun ushbu banklar bilan ishlashga tayyor edi.

2014-yilda Britaniyada islom moliyasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishchi guruh tashkil etildi. 2015-yilda ishchi guruh e'lon qilgan hisobotida bir nechta tavsiyalar berildi, jumladan, hukumat va sanoat o'rtasida muloqot va hamkorlikni rag'batlantirish uchun Islom Moliya Kengashini tashkil etish va islomiy moliyaviy mahsulotlarning chegaralar bo'ylab sotilishini osonlashtirish uchun Shariatga muvofiq moliyaviy mahsulot pasportini ishlab chiqish shular jumlasidan.

Hozirda Britaniyada beshta to'liq islomiy bank va yigirmadan ortiq islomiy moliyaviy muassasalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning jami aktivlari 20 milliard funt sterlingdan oshadi.[10] Ushbu muassasalar bank ishi, investitsiya, sug'urta, shariat qonunlariga muvofiq ipoteka va boshqa xizmatlarni ko'rsatib kelmoqda.

Buyuk Britaniya suveren sukuk (islomiy obligatsiyalar) chiqarish orqali 2014-yilda 200 million funt sterling mablag' to'pladi va bu borada birinchi mamlakat bo'ldi. Buyuk Britaniya sukuk obligatsiyalari bozori 2007-yilda boshlangan va shundan beri kengayib bormoqda. 2015-yil holatiga ko'ra, London fond birjasida ellik bir milliard dollarlik sukuk ro'yxatga olingan.

Mamlakatda ushbu sohada o'sib borayotgan sanoat ehtiyojlarini qondirish uchun islom moliyasi bilan bog'liq bir nechta professional ta'lim va trening dasturlari ishlab chiqilgan. Hozirgi vaqtda islom moliyasi bo'yicha darajalar to'rtta professional institut va deyarli 70 ta universitet va biznes maktabi tomonidan taklif etilayotgani talabning oshib borayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga islom moliyasi tatbiq etilgan yoki huquqiy asoslari izchillik bilan joriy etilayotgan mamlakatlarda islomiy moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar faoliyatini tartibga soluvchi, kuzatib boruvchi, nazorat qiluvchi tuzilmalar, rasmiy organlarning maqomi, tashkiliy-huquqiy vakolatlarida bir qator farqlanishlar bor.

Bizga ma'lumki, AAOIFI hamda IFSB belgilagan standartlarga muvofiq, har bir islom moliyaviy xizmatlarini ko'rsatuvchi muassasa o'z shariat kengashiga ega bo'lishi nazarda tutadi. Ushbu kengash islom moliyaviy xizmatlarining sohaga oid asosiy tamoyillarga muvofiqligini ta'minlashi lozim hisoblanadi.

Tashkil etilganidan beri IFSB islomiy moliya institutlari uchun turli standartlar, yo'riqnoma tamoyillari va texnik eslatmalar ishlab chiqdi. Ular orasida eng muhimlaridan biri – IFSB-10 (2010) bo'lib, u islomiy moliya institutlari uchun shariat boshqaruvi tizimi bo'yicha yo'riqnoma tamoyillarini belgilaydi.[11] Ushbu standart (IFSB-10) Islom moliyaviy muassasalarining shariatga muvofiqligini nazorat qiluvchi institutsional va ma'muriy mexanizmlarni belgilaydi.

Bu hujjatda shariat boshqaruvi tizimi yagona modelga asoslanmasligi, balki har bir yurisdiksiya o'z me'yorlarini belgilashi mumkinligi qayd etilgan (Hassan, 2009; IFSB, 2010). Shuningdek, islomiy moliya institutlarining shariat boshqaruvi tizimi "ex-ante" va "ex-post" nazoratlarni o'z ichiga olishi kerak. Ex-ante nazorat – moliyaviy instrument joriy etilishidan oldingi shariat ekspertizasi bo'lsa, ex-post nazorat – ichki shariat tekshiruv jarayonlarini anglatadi (Kasim va boshq., 2013).

IFSB-10 shuningdek, Islomiy moliya institutlari (IFI) Shariat kuzatuv kengashlari (SSB) tomonidan shariat qarorlarini qabul qilish tartibini belgilaydi. IFSB tomonidan ishlab chiqilgan ehtiyotkorlik standartlari asosan tartibga soluvchi organlar uchun ishlab chiqilgan bo'lsa, AAOIFI standartlari faqatgina islom moliyaviy muassasalar uchun mo'ljallangan.[4]

Demak, mamlakatlarni turli yurisdiksiyalarda islom moliyaviy xizmatlarini ko'rsatuvchi muassasalarda shariat kengashi boshqaruvini yo'lga qo'yishda quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin:

A) Islom moliyasida markazlashtirilmagan shariat nazorati tizimiga ega bo'lgan mamlakatlar bo'lib, bunda muassasalar mustaqil shariat kengashlariga ega bo'lib, ularning faoliyati muayyan qonun, nizom yoki regulyator yo'riqnomalari bilan tartibga solinadi hamda eng yuqori islom moliyaviy xizmatlar bo'yicha doimiy shariat boshqaruv kengashi odatda mavjud bo'lmaydi. Bunday mamlakatlar qatorida Saudiya Arabistoni, Ummon, Qatar, Quvayt va Bahrainni misol qilib keltirish mumkin.

B) Islom moliyasi tizimida markazlashgan shariat nazorati boshqaruv tizimiga ega bo'lgan mamlakatlar bo'lib, sohaga oid qonunchilik asoslariga, shuningdek, markazlashgan, doimiy shariat boshqaruvi organlariga ega ekanligi bilan alohida ahamiyatga ega. Ularga misol sifatida Malayziya, Indoneziya, Bangladesh, Pokiston, Eron hamda Bruneyni misol keltirishimiz mumkin.

C) O'z yurisdiksiyasida islom moliyasining huquqiy asoslariga ega bo'lmagan, markazlashgan tizimga ega bo'lmagan mamlakatlar bo'lib, soha faoliyati amaldagi qonun hujjatlariga kiritiladigan kichik o'zgarishlar hamda qo'shimchalar orqali tartibga solinadi. Buyuk Britaniya, AQSH hamda Avstraliya shular jumlasidandir.

Xulosa sifatida, har bir mamlakat islom moliyasini joriy etishda o'z huquq tizimining yuridik tabiati, aholining saviyasi hamda sohaga oid xabardorlik ko'lami, tadbirkorlarning talab-ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yondashganligini hamda o'ziga mos va qulay model asosida uning huquqiy asoslarini joriy etganini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimiz doirasida taklif va tavsiyalarga to'xtaladigan bo'lsak, birinchidan, bugun O'zbekistonda an'anaviy moliyaviy tizimning mustahkam asoslarga ega ekanligini inobatga olsak, islom moliyasini joriy etishning dualistik modeli nisbatan qulay hamda egiluvchan ekanligiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, Malayziya, BAA, Turkiya kabi

mamlakatlarning ushbu model asosidagi muvaffaqiyatli tajribasi uning ustunliklarini yaqqol namoyon etadi.

Ikkinchidan, sohaga oid normativ-huquqiy bazani shakllantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Islomiy moliyaviy muassasalarga nafaqat bir qator moliyaviy xizmatlar ko'rsatish, balki, omonatlar jalb qilish, imkoniyatini ham taqdim etish maqsadga muvofiq. Bunda, bir qator qonun hujjatlari, jumladan, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Markaziy bank to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, omonatlarni kafolatlashning shariatga zid bo'lmagan mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, sohani bilguvchi kadrlar bilan bog'liq taqchillikni kamaytirish maqsadida mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha davlat dasturi asosida ta'lim kurslarini tashkil etish, ta'lim yo'nalishlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Kepli M. Y. B. Z. Islamic finance in singapore: Legal and regulatory challenges //Sing. L. Rev. – 2013. – Т. 31. – С. 279
2. Беккин Р. И. Особенности исламской экономической модели //Научные труды Вольного экономического общества России. – 2009. – Т. 106. – С. 99-105 (Bekkin R. I. Features of the Islamic economic model // Scientific works of the Free Economic Society of Russia. - 2009. - V. 106. - P. 99-105)
3. Usury (Interest) Free Banking Act of Bahrain, 1983. Закон Исламской Республики Иран «О банковской деятельности свободной от ростовщичества». (Usury (Interest) Free Banking Act of Bahrain, 1983. Law of the Islamic Republic of Iran on Usury-Free Banking) URL: <http://www.lexadin.nl/wlg/legis/nofr/oeur/lxweira.htm>
4. Ahmed, H., Asutay, M., & Wilson, R. (2013). Islamic banking and financial crisis: Reputation, stability and risks. *Islamic Banking and Financial Crisis: Reputation, Stability and Risks*, 1–244.
5. Эль-Корчи. Исламская финансовая система набирает обороты//Финансы & Развитие, декабрь 2005 (El-Korchi. Islamic financial system is gaining momentum//Finance & Development, December 2005).
6. Regulatory framework of sharia governance system in Malaysia, GCC Countries and the UK. *Kyoto Bulletin of Islamic Area Studies*(3): 2<<https://ssrn.com/abstract=2196825>> accessed 25 Oct 2019.Hassana R, Hussain MA. 2013
7. Hasan Z. B. Regulatory framework of Shari'ah governance system in Malaysia, GCC Countries and the UK //Kyoto Bulletin of Islamic Area Studies. – 2009. – С. 3-2.
8. Rowley, V. (2014). The Rise of Islamic Finance in the United Kingdom. *UK Law Stuent Review*, 2(2), 75–87.
9. IMF. (2017). Ensuring Financial Stability in Countries With Islamic Banking.
10. Smith, R. (2016). Islamic Finance in the UK. British Embassy.
11. Wardhany, N., & Arshad, S. (2012). The Role of Shariah Board in Islamic Banks: A Case Study of Malaysia, Indonesia and Brunei Darussalam. 2nd ISRA Colloquium "Islamic Finance Is n Challenging Economy: Moving Forward," November, 1–26.

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

10 ЖИЛД, 2/3 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 10, НОМЕР 2/3

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 10, ISSUE 2/3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000